

KELGUSI YIL HOSILIGA ZAMIN TAYYORLANMOQDA

Joriy yil 11-avgust kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi Q.Sariyev, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari Sh.Teshaev rahbarligida To‘rtko‘l tumani "Ko‘na To‘rtko‘l" OFY hududidagi "To‘rtko‘l non agroklaster" mas‘uliyati cheklangan jamiyati dala maydonida 2023 yil hosili uchun g‘alla ekish bo‘yicha ko‘rgazmali seminar bo‘lib o‘tdi.

Image not found or type unknown



Seminarda qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya va melioratsiya xodimlari, tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari hamda fermer xo‘jaliklari rahbarlari qatnashdilar.

Ko‘rgazmali seminarda so‘zga chiqqan mas‘ullar tomonidan ekish ishlarini optimal muddatlarda tizimli amalga oshirish maqsadida ekish uchun yer tayyorlash, sho‘r yuvish va ekish bo‘yicha tashkil qilingan otryad a‘zolari bilan mavsumni belgilangan grafik asosida to‘lig‘i bilan yakunlash borasida so‘z yuritildi. Seminar davomida mas‘ullar ishtirokida yaxshi niyatlar bilan kelgusi yil hosilining ilk g‘alla urug‘lari yerga sepildi.

Image not found or type unknown



Seminarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini zararkunandalardan himoyalash borasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan biologik va kimyoviy vositalar hamda suvni tejovchi texnologiyalardan iborat ko‘rgazma ham tashkil etildi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



To'rtko'l tumani hokimligi Axborot xizmati